Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich (Xorijiy filologiya fakulteti dekani,
filologiya fanlari doktori, prof.v.b.; zohid@urdu.uz)

NEMISCHA DIPLOMATIK LEKSIKA TADQIQI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nemis, rus va o'zbek tillaridagi diplomatik terminlarning tadqiq qilinishi, kelib chiqishi, ularning lotin va fransuz tillaridan o'zlashish jarayonlari, transkripsiya, transliteratsiya va kalkalash usullari asosida tilga kirib kelish xususiyatlari yoritilgan. Diplomatik terminologiyaning leksik-semantik tarkibi, tematik guruhlari hamda konsullik terminologiyasining mustaqil terminologik tizim sifatidagi o'rni ilmiy manbalar asosida tavsiflangan.*

Kalit so'zlar: *diplomatiya, diplomatik leksika, terminologiya, diplomatik til, leksik qatlam, termin, transkripsiya, transliteratsiya, o'zlashmalar,*

ИССЛЕДОВАНИЕ НЕМЕЦКОЙ ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы исследования дипломатической терминологии немецкого, русского и узбекского языков, её происхождения, а также процессы заимствования из латинского и французского языков. Освещаются особенности проникновения дипломатических терминов в языки посредством транскрипции, транслитерации и калькирования. На основе научных источников характеризуются лексико-семантический состав дипломатической терминологии, её тематические группы, а также определяется место консульской терминологии как самостоятельной терминологической системы.*

Ключевые слова: *дипломатия, дипломатическая лексика, терминология, дипломатический язык, лексический пласт, термин, транскрипция, транслитерация, заимствования.*

A STUDY OF GERMAN DIPLOMATIC VOCABULARY

Annotation. *This article examines the study of diplomatic terminology in the German, Russian, and Uzbek languages, its origin, and the processes through which it has been borrowed from Latin and French. It highlights the linguistic features of the incorporation of diplomatic terms into these languages through transcription, transliteration, and calquing. Based on scholarly sources, the article describes the lexical-semantic structure of diplomatic terminology, its thematic groups, and the status of consular terminology as an independent terminological system.*

Key words: *diplomacy, diplomatic lexis/diplomatic vocabulary, terminology, diplomatic language, lexical layer/lexical stratum, term, transcription, transliteration, loanwords/borrowings.*

Kirish (Introduction). Diplomatik faoliyatga oid terminlar nemis, rus va o'zbek tillarining leksik tizimida alohida o'rin egallaydi. Ushbu terminlarning shakllanishi va taraqqiyoti tilning ichki qonuniyatlari bilan bir qatorda, davlatlararo aloqalar, siyosiy jarayonlar hamda xalqaro hamkorlikning rivojlanishi kabi ekstralingvistik omillar bilan ham belgilanadi. Shu sababli diplomatik terminologiyani o'rganish tilshunoslik bilan birga tarix, siyosatshunoslik va xalqaro munosabatlar bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi lozim.

Diplomatik leksikaning dastlabki qatlamlari davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning vujudga kelishi, muzokaralar olib borish, tinchlik bitimlarini tuzish va o'zaro majburiyatlarni belgilash jarayonlarida shakllangan. Jamiyat taraqqiyoti va xalqaro aloqalarning kengayishi natijasida ushbu sohaga oid tushunchalar doirasi tobora boyib, ularni ifodalovchi terminlar ham miqdor va mazmun jihatidan o'zgarib bordi. Bugungi kunda diplomatik terminologiya yangi siyosiy voqeliklar, xalqaro huquq me'yorlari va kommunikativ ehtiyojlar ta'sirida muntazam ravishda takomillashmoqda.

Diplomatik terminlarning etimologiyasini tahlil qilish ularning turli tillar o'rtasidagi aloqalar natijasida shakllanganini ko'rsatadi. Xususan, lotin tili xalqaro siyosiy-huquqiy terminologiyaning tarixiy manbalaridan biri hisoblanadi. Lotincha birliklarning Yevropa tillariga o'zlashishida fransuz, nemis va ingliz tillari muhim vositachi vazifasini bajargan. Biroq terminlarning o'zlashish yo'llari va semantik xususiyatlari har bir tilning tarixiy taraqqiyoti hamda milliy-lisoniy imkoniyatlariga ko'ra farqlanadi. Shu nuqtayi nazardan, nemis, rus va o'zbek tillaridagi diplomatik terminlarni qiyosiy-chog'ishtirma o'rganish ularning umumiy manbalari, o'zlashish xususiyatlari va milliy til tizimlarida namoyon bo'lish qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Diplomatik terminologiya masalasi bo'yicha ingliz olimlari G.Nikolson, S.Ealy, R.Denton, G.Woodward, R.Roland, J.Delisle, W.Judith, H.Houben, J.House, nemis olimlari nemis J.Hatschek, K.Strupp, H.Wildner, K.Heller, U.Ammon, B.Schöbener, D.Nohlen, F.Glots, R.Rotte, A.Ritzer; rusiyzabon olimlar E.M Isserlin, A.N.Kovalyev, F.P.Sergeev, L.G. Farafonova, F.F.Molochkov, S.B.Grinyev, A.F.Borunkov, L.A.Balandina, S.B.Grinyev-Grinyevich, M.B.

Belzakov, F.Naser, X.Trabelsi, A.I.Pencheva, L.M.Terentiy, V.I.Popov, V.V Krivorot va o‘zbek olimlari D.Qulmamatov, H.Dadabayev, M.Qosimov, X.Muhitdinova, A.Abdullayeva Sh.Safarov, Sh.Ko‘chimov, S.Inomxo‘jayev, R.Rasulov, N.Abdullayeva, N.U.Xa, S.D.Mavlyanov, A.I.Musayev tomonidan turli yo‘nalishlarda izlanishlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlarda diplomatik leksikaning qardosh va noqardosh tillarda shakllanishi, rivojlanishi, qadimiy yozma yodgorliklar matnida qo‘llanilishi, ularning etimologiyasi, semantik strukturasi tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada diplomatik leksik birliklar materiali tahliliga oid metodlardan foydalanilgan holda tadqiq natijalari taqdim qilindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, empirik, diaxron, sinxron, qiyosiy-tarixiy, etimologik, tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. XX asrda diplomatik tilning terminologik tizimiga xalqaro til maqomini olgan ingliz, fransuz tili ta’sir eta boshladi. Qator diplomatik leksemalar Yevropa tillari (jumladan, rus tili)ga nemis tili orqali ham o‘tgan. O‘zbek tiliga esa ular, asosan, rus tilidan o‘zlashgan.

Diplomatiya tili terminlari ikki turga bo‘linadi. Bular o‘z va o‘zlashma terminlardir. O‘zlashmalar, o‘z navbatida, kalka va international kabi ko‘rinishlarda qo‘llaniladi [3;30-b.].

Ta’kidlash lozimki, nemis, rus va o‘zbek tillari leksik qatlamida uchraydigan ko‘pgina diplomatiyaga oid so‘zlar kelib chiqish nuqtayi nazaridan: **1) lotincha** – *notatio*>nem. die Note>rus. нота>o‘zb. nota; *consul*–nem. der Konsul–rus. консул–o‘zb. konsul; *memorandum*–nem. das Memorandum–rus. Меморандум–o‘zb. memorandum; *nuntius*–nem. der Nuntius – rus. нунций – o‘zb. nunsiy; *mediātor* – nem. der Mediator – rus. медиатор – o‘zb. mediator;

2) fransuzcha – *diplomate* > nem. der Diplomat > rus. дипломат > o‘zb. diplomat; *agrément* – nem. das Agreement – rus. агреман–o‘zb. agreman; *attaché* – nem. der Attaché – rus. атташе – o‘zb. attashe; *démarche* – nem. die Demarche – rus. демарш – o‘zb. demarsh; *commune* < lat. *communis* – nem. die Kommune – rus. *коммуна* – o‘zb. *kommuna* bo‘lib hisoblanadi.

Bundan tashqari, diplomatik terminlar nemis, rus va o‘zbek tillariga lotin hamda fransuz tillaridan kalkalash orqali ham olingan. Ularga, jumladan, quyidagi terminlar misol bo‘la oladi: 1) lot. *memorandum* > nem. die Denkschrift > rus. заметка > o‘zb. diplomatik hujjat, eslatma; *veto* – nem. das Vetorecht – rus. право на вето – o‘zb. veto huquqi); 2) fr. *corps diplomatique* – nem. das diplomatische Korpus – rus. дипломатический корпус – o‘zb. diplomatik korpus; *la résidence* < **residentia** – nem. die Residenz rus.– резиденция – o‘zb. rezidensiya (qarorgoh).

Ta’kidlash joizki, keltirilgan misollar lotincha va fransuzcha terminlar nemis, rus va o‘zbek tillariga transliteratsiya va transkripsiya yo‘li bilan kirib borganligini dalillaydi. Shu bilan birgalikda, o‘ranilayotgan tillar qatlamida assimilatsiyaga uchramagan lotincha leksemalar ham qo‘llaniladi: *de-fakto* – nem. de facto – rus. де факто – o‘zb. de-fakto; *persona non grata* – nem. die Persona non grata – rus. персона нон грата – o‘zb. persona non grata; *status quo* – nem. der Status quo – rus. статус-кво – o‘zb. status kvo; *modus vivendi* – nem. der Modus Vivendi – rus. модус вивенди – o‘zb. modus vivendi.

Diplomatiya tilining leksik-semantik tarkibiy qismi maxsus leksika hisoblanib, ular terminologik va terminologik bo‘lmagan so‘zlarga ajraladi.

K.Heller maxsus diplomatik terminlarni quyidagicha farqlaydi: keng ma’nodagi (umumiy) foydalaniladgan (die Botschaft, der Diplomat, die Diplomatie, usw); tor doiradagi (der Empfangsstaat, die Botschafterebene, die Exquatur usw.); bir guruhdan ikkinchisiga o‘tishni anglatuvchi (Konsularagent, Zeremoniell, Agreement usw) [1;531–544-b.].

Mavjud faol tillar tizimida bo‘lgani kabi, diplomatik leksik birliklar o‘rasida muayyan chegara yo‘q. Ta’kidlash kerakki, diplomatik soha terminlari fanning boshqa sohalari bilan qiyoslaganda, deyarli o‘zgarishsiz bo‘lishiga qaramasdan, umuman olganda, barqaror emas.

Tilshunos olim L.G.Farafonova o‘z tadqiqotlarida diplomatik terminlarni paradigmatik tamoyilga ko‘ra bo‘linishini keltiradi hamda quyidagi terminologik sinflar va ularning quyi tizimlarini ajratib ko‘rsatadi.

Diplomatik vakillar rasmiy lavozimga ega shaxslar (*der Attaché, der Sekretär, der Gesandschaftsrat, der Gesandte* usw.); tashkilot va diplomatik vakolatxona nomlari (*die Gesandtschaft, die Botschaft, Auswärtiges Amt,* usw.); rasmiy hujjat nomlari va ularning tarkibiy qismlari (*die Konzeption, der Artikel, die Note, die Verbalnote* usw.); diplomatik jarayonlarni bildiruvchi terminlar (*akkreditieren, bestellen, das Beglaubigungsschreiben abberufen,*); diplomatik protokol terminlari (*die Tischordnung, der Empfang, die Sitzordnung* usw.) [4;203-b.].

Ko‘pchilik tadqiqotchilar konsullik terminlarini tildagi diplomatik tizim bilan birga ishlatiladigan mustaqil terminologik tizim sifatida qaraydilar. Mazkur dalil xalqaro huquq normalariga mos shakllantirilgan maxsus konsullik xizmati institutining mavjudligi bilan asoslanadi [2; https://lex.uz/docs/2750193].

Konsullik terminlari quyi tizimlarga ham bo‘linadi: 1. Konsullik darajalari nomlari, rasmiy lavo-zimga ega shaxslar (*der Konsul, der Generalkonsul, der Vizekonsul* usw.)nomlaridi. 2. Konsullik vakolatxonalari nomlari (*das Konsulat, die konsularische Vertretung, die Konsularabteilung,* usw.); 3. Rasmiy hujjatlarning nomlari (*das Ernennungsschreiben, die Exequatur, das Visum* usw.). 4. Konsullik amaliyotidan olingan leksika (*das Konsulargericht, die Konsulargebühr, konsularischer Schutz,* usw.).

Xulosa va takliflar. Ta‘kidlash joizki, nemis tiliga kirib kelgan diplomatik leksikani haqiqiy nemischa, ruscha va o‘zbekcha leksika bilan almashtirish, ya’ni kalkalash tendensiyasi mavjud. Misol uchun, Lettre de creance – Beglaubigungsschreiben; верительная грамота; ishonch yorlig‘i, der Botschafter Ambassadeur – (der Ambassadeur); посол; elchi va boshqalar.

Diplomatiya sohasida til tejamkorligi nuqtai nazaridan leksik tizimning xarakterli elementi bo‘lmish so‘zlarning qisqartma shakllari qo‘llaniladi. Misol uchun, BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), SHHT (Shanxay Hamkorlik Tashkiloti), EI (Yevropa Ittifoqi) va h.k.

Diplomatiyaning tezkor rivojlanishi, siyosiy tuzumlarning yemirilishi, mamlakatlarning tashqi siyosiy maydondagi positsiyasi, geosiyosiy vaziyatning tubdan o‘zgarishi diplomatik tilda ham yangi leksikaning yuzaga chiqishiga olib kelmoqda. Keyingi paytlarda diplomatiya tilida quyidagi diplomatik leksik birliklar paydo bo‘layotganligi buning yaqqol dalilidir: Misol uchun, “separatist (ayirmachi)” “sanksiya”, “sanksiyalar tahdidi” va hokazo.

Xulosa qilib aytganda, diplomatiya sohasi terminlari etimologiyasi, shakllanishi, rivojlanishi, tematik xosligi va xarakteristikasiga ko‘ra, umumiy va tor doirada qo‘llaniladigan sohaviy terminlardan iborat. Biroq ular muayyan tizimli aloqa va munosabatga ham egadirlar. Bu esa mazkur leksik birliklarni diplomatiya tili deb atashni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Heller K. Der Wortschatz unter dem Aspekt des Fachwortes–Versuch einer Systematik // Wissenschaftliche Zeitschrift der Karl-Marx Universität. Leipzig, 1970, № 4, s. 531–544.

(2). Konsullik munosabatlari to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi, 1963 // https://lex.uz/docs/2750193

(3). Пономарёва Е.В. Лексико-стилистические аспекты перевода дипломатических текстов (на материале сайтов МИДа России и Германии). Дис. ...на соискание степени магистра / Е.В.Пономарева; науч. рук. В. Н.Корнев; СПбГУ. Санкт-Петербург, 2017, с. 30.

(4). Фарафонова Л.Г. Система дипломатического подстиля и ее исследование на уровне текста: на материале современного немецкого языка. Дисс. ... канд. филол. наук, Москва, 1977, 203 с.

Turaxanov Akrom Abdulhakimovich (Farg‘ona davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) E-mail: akromturahanov@gmail.com; ORCID ID: 0009-0003-5218-0891)

Turaxanova Firuza Shavkatovna (Amerika Texnologiya universiteti magistranti)

HOZIRGI O‘ZBEK RAQAMLI DISKURSIDA INGLIZCHA O‘ZLASHMALARNING MAVZUIY-KONSEPTUAL VA STRUKTURAVIY-SEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya. *Maqola hozirgi o‘zbek raqamli diskursida inglizcha leksik birliklarning mavzuiy-konseptual tashkil etilishi, semantik transformatsiyasi va strukturaviy-grammatik moslashuviga bag‘ishlangan. Tadqiqot materiallari asosida o‘zlashmalarning mavzuiy sohalari tizimlashtirildi, semantik va konseptual o‘zgarishlar farqlandi, morfologik hamda so‘z yasalishiga oid integratsiya mezonlari bayon qilindi. Post, startup, target, blogger, hashtag birliklari, shuningdek, postlar, like-lar va commentlar shakllari ko‘rib chiqiladi. Tavsif sifat tahliliga asoslanadi; birliklarning chastotasi va tarqalishi haqida miqdoriy xulosalar ilgari surilmaydi.*

Kalit so‘zlar: *inglizcha o‘zlashmalar, o‘zbek tili; raqamli diskurs, mavzuiy-konseptual tashkil etilish, semantik moslashuv, konseptual kategoriyalash, morfologik integratsiya, so‘z yasalishi.*

СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ И ТЕМАТИКО-КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ АНГЛИЙСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ЦИФРОВОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация. *Статья посвящена тематико-концептуальной организации англоязычных лексических единиц в современном узбекском цифровом дискурсе, их семантической трансформации и структурно-грамматической адаптации. На основе исследуемого материала систематизированы*